

## CHEKKA HUDUDLARDA ARAB TILI TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH

**Xalilova Ro'zixon Zoxidjon qizi**

*Oriental universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qishloq hududlarida zamonaviy til ta'limi markazini tashkil etish g'oyasi, uning dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati hamda kutilayotkan natijalari yoritilgan. Shuningdek, qishloq yoshlari uchun sifatli va hamyonbop ta'lim muhitini yaratish, arab tili bilan bir qatorda boshqa xorijiy tillarni ham o'qitish istiqbollari tahlil qilingan. So'ngi yillarda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshib bormoqda. Arab tiliga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Biroq ayrim chekka hududlarda til o'rganish uchun zamonaviy o'quv markazlari mavjud emas yoki yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada o'quvchilar va yoshlar qo'shimcha ta'lim olish uchun tuman markazlari yoki shaharlarga qatnashga majbur bo'lmoqdalar. Qishloq hududlarida zamonaviy til ta'limi markazini tashkil etish chekka hudud yoshlari uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, xorijiy tillar, chekka qishloqdagi yoshlar, o'quv markaz, innovatsion ta'lim.*

Muammoning dolzarbligi chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'plab yoshlar bilim olishga intiladilar. Biroq sifatli qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatlari har doim ham mavjud emas.

Ayniqsa xorijiy tillarni o'rganish istagidagi o'quvchilar ko'pincha uzoq masofalarga qatnashlariga to'g'ri keladi. bu holat bir qator qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ortiqcha vaqt sarfi, yo'l harajatlarini ko'payishi, ayrim oilalarning moddiy imkoniyatlari cheklanganligi, qizlarning uzoq hududlarga qatnashi bilan bog'liq tashkiliy qiyinchiliklar.

Natijada bilim olishga qiziqishi yuqori bo'lgan ayrim yoshlar o'z maqsadlariga to'liq erisha olmay qolishlari mumkin. Shaxsiy tajriba va tashabbusning shakillanishi muallifning shaxsiy ta'lim tajribasi va kuzatuvlari asosida shakillangan. Hozirda muallif Toshkent shahridagi Oriental universiteti Filologiya va tillarni o'qitish arab tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi hisoblanadi.

Arab tili yo'nalishida Oliy ta'lim muassasasiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida chekka hududlarda malakali mutaxassiz ustozlar va sifatli ta'lim markazlari yetishmasligi sezilgan.

Xususan, arab tili chuqur o'rgatadigan, o'z sohasi bo'yicha yetarli tajriba va bilimga ega pedagoglarni topish oson bo'lmagan. Qo'shimcha ta'lim olish uchun shahar markaziga qatnashga to'g'ri kelgan.

Ushbu holat muallifda muhim bir fikrni shakillantirdi qishloq yoshlari ham o'zlari qiziqqan yo'nalishlar bo'yicha sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Chunki har bir o'quvchining shaharga qatnash yoki qo'shimcha ta'lim olish shahar yoki tuman markaziga qatnashga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, chekka hududlarda zamonaviy va tizimli ta'lim muhiti mavjud emasligi sezilib turgan.

Ushbu holat muallifda muhim bir fikrni shakillantirdi chekka hududdagi yoshlar ham o'zlari qiziqqan yo'nalishlar bo'yicha sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak, markazning dastlabki yo'nalishi arab tilini o'qitishga qaratilsa-da, keyinchalik boshqa xorijiy tillar va turli ta'lim yo'nalishlarini ham joriy etish kelajak ravnaqi uchun juda ham foydali.

loyihaning asosiy maqsadi; qishloq hududlarida ham shahar darajasidagi ta'lim imkoniyatlarini yaratish, tajribali va malakali pedagoglarni jalb etish hamda yoshlarning o'zlari qiziqqan sohalar bo'yicha rivojlanishlari uchun mustahkam poydevor yaratib berish.

Ushbu markaz orqali kelajakda ko'plab yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga kirishga, o'z kasbini topishga va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga ko'maklashish maqsad qilingan.

Markaz faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi yo'nalishlar olinishi mumkin; Arab tili bo'yicha boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqich guruhlarini tashkil etish. Zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish, Audio video va interaktiv materiallar asosida ta'lim berish. O'quvchilar bilimni muntazam baholab borish, kelgusida ingliz tili va boshqa xorijiy tillar va Prezident maktabiga tayorlov kurslarini ham joriy etish. Iqtidorli va ehtiyojmand o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish. Markazning asosiy maqsadi daromad olishdan ko'ra ko'proq chekka qishloq yoshlarining sifatli ta'lim olishga ko'maklashishdan iborat bo'lishi lozim. Zamonaviy til ta'limi markazini tashkil etish zarurati; Til bilish bugungi kunda oddiy ko'nikma emas, balki muhim ehtiyojga aylanib bormoqda.

Xorijiy tillarni bilgan yoshlar turli ta'lim dasturlarida qatnashish, xalqaro manbalardan foydalanish va o'z bilimlarini mustaqil rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. o'quvchilarning bilim darajasi oshadi, til o'rganishga qiziqish kuchayadi, chekka joylarda ham shahar markazlari kabi ta'lim muhiti shakillanadi. Kutilayotgan natijalar ushbu loyiha amalga oshirilishi natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin; U joyda har -hil yoshdagi bolalar uchun sifatli ta'lim imkoniyatlari yaratiladi; qo'shimcha ta'lim olish uchun uzoq masofalarga qatnash zarurati bo'lmaydi oilalarning xarajatlari qisqaradi axoli farzandlarining til bilish darajasi oshadi, qishloqda ta'limga bog'liq qiziqish kuchayadi, kelajakda malakali mutaxassislar yetishib chiqishiga zamin yaratiladi. Bundan tashqari yoshlarni bilimga asoslangan fikirlashi rivojlanib, turli manbalarni mustaqil o'rganish, ko'nikmalari shakillanadi. Arab tili dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'llaniladigan va boy ilmiy hamda madaniy me'rosiga ega tillardan biri hisoblanadi.

Ushbu tilni puxta o'rganish yoshlarning ilmiy manbalardan foydalanish, xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etish hamda kasbiy salohiyatini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bois qishloq hududlarida arab tili ta'limini rivojlantirish va bu yo'nalishda zamonaviy o'quv markazlarini tashkil etish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Xulosa;xulosa qilib aytqanda , chekka hududlarda zamonaviy til ta'limi markazlarini tashkil etish bugungi kunda dolzarb va istiqbolli tashabbuslardan biri hisoblanadi.

Bunday markazlar nafaqat yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularning intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil fikirlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishga mustahkam zamin yaratadi ta'lim markazi loyihasi orqali qishloq yoshlari uchun shahar darajasidagi ta'lim muhitini yaratish, xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish va sifatli ta'limga teng imkoniyatlarni ta'minlash mumkun bo'ladi .

Bu esa o'z navbatida hududning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi . Eng muhimi , mazkur tashabbus chekka qishloqlarda ham katta imkoniyatlar mavjud ekanligini amalda isbotlaydi va yoshlarni o'z orzulari sari dadil qadam tashlashga undaydi.

#### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. Muallifning shaxsiy ilmiy kuzatuvlari
2. Pedagogika va ta'lim metodikasi bo'yicha adabiyotlar
3. Rasmiy ta'lim va internet resurslari.